

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrası

Ochiq dars tahlili

B A Y O N N O M A S I

Qatnashdilar: Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrası o‘qituvchilari

O‘qituvchi: Pardayeva Kibriyo

Fan: Molekulyar fizika

Guruh: 6F-2024

Mavzu: Molekulalarning tezliklari va kinetik energiyalari bo‘yicha taqsimoti

Sana: 18.03.2025 yil

Maqsad: Talabalarga molekulalarning tezliklari va kinetik energiyalari bo‘yicha taqsimotiga doir masalalarni yechish yo‘llarini tushuntirish. Formulalardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Darsning borishi:

Dars salomlashish bilan boshlandi. Talabalar davomati aniqlandi. Kerakli jihozlarning tayyorgarligi tekshirildi. Dars mavzusi va maqsadi e‘lon qilindi.

O‘tilgan mavzuni so‘rash uchun “Aqliy hujum” metodidan foydalanildi. Masala yechish kitobidagi uyga vazifa qilib berilgan masalalar qabul qilib olindi. Bunda talabalar faol ishtirok etti.

Molekulalarning tezliklari va kinetik energiyalari bo‘yicha taqsimoti mavzusiga doir nazariy ma‘lumotlar berildi, formulalar keltirib chiqarildi, animatsion videolar monitorda ko‘rsatildi. Mavzuni tushuntirishda doska, monitor, hisob-kitob jadvali, tarqatma materiallardan foydalanildi. Keyin masala yechish kitobidagi 5.93-, 5.95-, 5.99-masalalar namuna uchun ishlab berildi. Talabalarga mustaqil ishlash uchun 5.94-, 5.96-, 5.97-, 5.98-masalalar berildi. Masalani birinchi va to‘g‘ri ishlagan talaba doskaga ishlagan masalasini tahlil qildi.

Dars yakunida o‘tilgan mavzu umumlashtirildi, o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalar sanab o‘tildi. Bunda “Piktogramma” metodidan foydalanildi. Darsdagi faol ishtirok etgan talabalar baholandi. Uyga vazifa qilib 5.100-5.106-masalalar uyga vazifa qilib berildi.

O‘qituvchi dars reglamentini to‘g‘ri taqsimladi, talabalarga savollar berish orqali auditoriyani muloqotga keltirdi. Dars mazmunli va samarali o‘tti.

Kafedra mudiri:

Kotiba:



E. Yusupov

Sh. Zamonova